

hayotimizda doimiy ravishda qo'llaniladi, muhandislik esa uylar, yo'llar, ko'priklar va mashina mexanizmlarda o'z aksini topgan, [biror bir kasb](#), kundalik mag'ulotlarimiz ozmi-ko'pmi matematika fani bilan ham bog'langandir. STEAM ta'limi asosida yondashuv o'quvchi yoshlarga dunyoni tizimli ravishda o'rganishga, atrofda ro'y berayotgan jarayonlarni mantiqiy mushohada qilishga, ulardagi o'zaro aloqani anglab yetishga o'zi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni kashf qilishga imkon beradi. Qandaydir yangilikni kutish orqali o'quvchi yoshlarda qiziquvchanlikni rivojlantiradi, o'zi uchun qiziqarli [masalani aniqlab olishni](#), yechimini topishning algoritimini ishlab chiqishni, natijalarni tanqidiy baholashni, fikrlashning muhandislik jihatlarini shakllantirishga olib keladi. Xorijiy tillarni o'rganish yo'nalishida yana bir asosiy tushuncha rli

O'qitishni yanada tushunarli qilishga yordam beradigan ko'plab strategiyalar mavjud bo'lsa-da, bir nechta sodda narsalarga fotosuratlar, eskizlar, grafikalar yoki videolar kabi materiallardan foydalangan maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda Steam Ta'lim tizimi yangicha metodika va ishlanmalarga boy bo'lgan tizim. Bu tizim bilan o'quvchilarimizni texnologiyalar bilan hamnafas bo'lgan holatda tarbiyalaymiz. Bugungi kunda hamma yosh avlod texnologiyalarga qiziqadi. Demak, bu tizimda qiziquvchanlik bilan o'rganishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "STEAM ta'lim tizimi nima?" <https://www.integer.uz/steam>
2. "STEAM education for English learners" <http://exclusive.multibriefs.com/content/steam-education-for-english-learners/education>
3. "English Teachers: How You Can Use STEAM in Your Classroom By Jennifer Gunn" <https://resilienteducator.com/classroom-resources/steam-lessons-english-classroom/>

REFERENCES

1. "What is the STEAM education system?" <https://www.integer.uz/steam>
2. "STEAM education for English learners" <http://exclusive.multibriefs.com/content/steam-education-for-english-learners/education>
3. "English Teachers: How You Can Use STEAM in Your Classroom By Jennifer Gunn" <https://resilienteducator.com/classroom-resources/steam-lessons-english->

**INFEKSION KASALLIKLARNI KELIB CHIQISH SABABLARI , ULARNI TARQALISHI VA
PROFLAKTIKASI, BU BORADA BUYUK TABIB ABU ALI IBN SINONI KASALLIKLARNI
KELTIRIB CHIQRUVCHI SABABLARI, ULARNI QO'ZG'ATUVCHI OMILLAR, KASALLIKLARNI
ALOMATLARI VA ULARNING OLDINI OLIH HAQIDAGI FIKRLARI.**

Umarov Faxriddin Baxriddin o'g'li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Maqolada hozirgi kunning dolzarb momolaridan biri bo'lgan Infekcion kasalliklarning asosiy omillari talqin etildi. Bu borada buyuk shifokorlarning tafsiyalari keltirilgan . Infekcion kasallikarning obyektiv va sbyektiv omillari tushuntirilgan. O'zbekistonda aholi o'rtasida Infekcion kasaliklarga qarshi olib borilayotgan ishlar haqida malumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Infekcion kasallik, patogen mikroorganizm, bakteriyalar, viruslar, yuqumli kasal, ich terlama, paratif, dizenteriya, gripp, ko'kyo'tal, parotit, difteriya, qizamiq, tanosil kasalliklari, kuydirgi, kal yara, toshmali terlama, sil, moxov, zaxm, sun'iy koma ,Tib qonunlari, sanitar-gigiyenik madaniyati.*

Infekcion kasalliklar — patogen mikroorganizmlar (bakteriyalar, viruslar, eng sodda jonivorlar)ning kishi, hayvon va o'simlik organizmiga kirib ko'payib, zararli ta'sir ko'rsatishi natijasida kelib chiqadigan kasalliklar. Infekcion kasalliklardan ba'zilari (qizamiq) bemorga yaqin yurilganda yuqadi, ularga „yuqumli kasalliklar“ termini juda mos keladi.

Bemor organizmida shu kasallikni vujudga keltiruvchi maxsus mikroob borligi va kasallikning odamdan odamga yuqishi mumkinligi Infekcion kasalliklarning asosiy belgilaridir.

Ba'zi kasalliklar (vabo, ich terlama, paratif, dizenteriya va boshqa, ichak infeksiyalari) hazm yo'li orqali (bemorlar najasi tushgan suv va oziq-ovqat yoki shu najas zarralari tekkan yuvuqsiz qo'l orqali) yuqadi. Bemor yo'talganda, aksa o'rganda, so'zlashganda chiqadigan mayda shilimshiq zarralari havo bilan nafas yo'llariga kirishidan kelib chiqadigan kasalliklar (tomchili infeksiyalar)ga gripp, ko'kyo'tal, parotit, difteriya, qizamiq va boshqalar kiradi. Ba'zi kasalliklar qon so'rar hasharotlar (bit, chivin, burga, kana, iskabtopar) orqali yuqadi (bezgak, toshmali terlama, qaytalovchi terlama, kana va chivin orqali yuqadigan ensefalitlar, iskabtopar isitmasi). Bemorga yaqin yurganda yoki uning sochig'i, idishtovog'i buyumlaridan foydalanganda yuqadigan kasalliklar (tanosil kasalliklari, kuydirgi, kal yara) alohida guruhni tashkil etadi. Infekcion kasalliklar bir necha kun (gripp, qizamiq, iskabtopar isitmasi) yoki bir necha hafta (ich terlama, toshmali terlama) davom etishi yoki oylab va hatto, yillab cho'zilishi mumkin (sil, moxov, zaxm). Infekcion kasalliklar kelib chiqishi organizmga kirgan patogen mikroblarning soniga, viru-lentligiga, kirgan joyiga, kishining yoshiga, infeksiyaga moyilligiga, shuningdek, mikroob atrofidagi tashqi muhit sharoitiga (noqulay sharoitda mikroobning virulentligi kamayadi) bog'liq. Infekcion kasalliklarning

paydo bo'lishi va uti-shida ijtimoiy sharoit (uy-joy, ovqatlanish tarzi, madaniy saviya, tibbiy yordam) hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu sharoitning o'zaro ta'siriga qarab Infekcion kasalliklarning turli (tipik — rostmana, yengil) shakllari namoyon bo'ladi. Infekcion kasalliklarning o'tishida inkubatsion davr, kasallik simptomlarining paydo bo'lish va oshib borish davri, kasallik avjiga chiqqan davr, kasallikning so'nish davri va sog'ayish davri farq qilinadi. Infekcion kasalliklarning har birida shu davrlarning o'ziga xos xususiyatlari bor. Ich terlama kabi ba'zi Infekcion kasalliklar mikrobi og'rib o'tgan organizmda saqlanib qoladi va tevarakatrofdagi muhitga chiqaveradi. Ko'pgina Infekcion kasalliklardan keyin immunitet qoladi. Infekcion kasalliklarni aniqlashda kasallikning klinik belgilari, tekshirish natijalari va epidemiologik ma'lumotlar asos qilib olinadi. Bemorlar maxsus jihozlangan infekcion kasalxonalarda davolanadi. Infekcion kasalliklarga qarshi kurashda profilaktika tadbirlari hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Infekcion kasalliklarning yanada tarqalishiga yo'l qo'yimaslik uchun shunday kasalliklar bilan og'rigan bemorlar yoki shunday kasallik bor deb gumon qilingan kishilar kasalxonada yoki uyida ajratib qo'yiladi. Vabo (xolera), toshmali terlama (toshmali tif), ich terlama (qorin tifi), paratif, dizenteriya, virusli gepatit, difteriya kasalliklar topilgan yoki gumon qilingan kishilarni maxsus sanitariya transportida kasalxonaga olib borib yotqizish shart. Gripp, qizamiq, ko'kyutal va ba'zi Infekcion kasalliklar bilan og'rigan bemorlarni alohida xonaga yotqizish, tegishli parvarish qilish va dezinfeksiya o'tkazib turish sharti bilan uyida ajratib qo'yish mumkin.

Sanatoriylar, dam olish uylari, bolalarni sog'lomlashtirish muassasalari, bolalar bog'chalari va yaslilarda, shuningdek, kasalxonalarining terapiya, xirurgiya, pediatriya (infekcion bo'limidan tashqari) bo'limlarida izolyator jihozlanadi. Ayniqsa, xavfli infeksiyalar (vabo) bilan og'rigan bemorlarga yaqin yurgan kishilarni o'sha kasalliklarning inkubatsion davriga teng keluvchi muddat bilan ajratib qo'yish shart. Boshqa infekcion kasalliklarda bemorlar turli muddat bilan ajratib qo'yiladi.

Abu Ali ibn Sino o'zining "Tib qonunlari" asarida kasalliklarni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar, ularni qo'zg'atuvchi omillar, kasallik alomatlari va ularning oldini olish haqida fikrlar bildirgan. Unda bir qancha xavfli yuqumli kasalliklar (vabo, o'lat, chin chechak, sil va boshqalar)ning ko'zga ko'rinmas qo'zg'atuvchilari va ularning mexanizmi, shuningdek, yuqumli kasalliklarning vujudga kelishida ifloslangan suv, havo kabi tashqi omillar muhim rol o'ynashi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Inson ichki a'zolari faoliyatiga jiddiy xavf soladigan ba'zi kasalliklarni davolashda u sedatsiya (sun'iy koma) texnikasini qo'llagan. Shuningdek, olim siydikda qand miqdorini o'lchash orqali diabetga tashxis qo'yish usulini ixtiro qilgan.

Mamlakatimizda yuqumli bo'lmagan kasalliklar hamda ularning xavf omillarining oldini olish, davolash va nazorat qilish, aholining barvaqt o'lim hamda kasallanishini kamaytirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, aholi salomatligini muhofaza qilish borasida profilaktika chora-tadbirlarini samarali muvofiqlashtirish tizimi mavjud emasligi fuqarolarning jismoniy faolligi

darajasini qo'llab-quvvatlash va sog'lom turmush tarzini yuritishda kelishilgan choralar ko'rish imkonini bermayapti.

Aholining tibbiy va sanitar-gigiyenik madaniyati darajasining pastligicha qolayotganligi natijasida asosiy e'tibor profilaktikaga emas, kasalliklar bilan kurashishga qaratilmoqda.

Yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi, aholining sog'lom turmush tarzini shakllantirish va jismoniy faolligini oshirishni tashkil qilish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5590-son Farmoniga muvofiq:

aholining umumiy jismoniy tayyorgarligi darajasiga sport normativlarini va davlat talablarini belgilash;

aholining turli yoshdagi guruhlarida o'rtasida sport musobaqalarini o'tkazish belgilab qo'yilgan.

Hozirda jahon miqiyosida keng qo'llanilayotgan epidemiyni cheklash usuli — karantin buyuk olim va mutaffakkir ibn Sino tomonidan o'ylab topilgan va ilmiy asoslab berilgan. "Tibbiyot fani qonuni"ning lotin tiliga o'girilgan ko'plab tarjimalari mavjud. "Qonun" besh qismdan iborat bo'lib, ikkisi dori vositalari va dorivorlarga hamda ularning tayyorlanish ta'rifiga bag'ishlangan. Kitobda keltirilgan 2600 dori vositalaridan 1400 tasining kelib chiqishi o'simlik ko'rinishidadir. «Al-Adviyat al kalbiya») — Xamadonga birinchi borishi vaqtida yozgan. Mazkur asarda pnevma hosil bo'lganda va namoyon bo'lganda yurak faoliyati, xususan, yurak kasalligi va davosi haqida batafsil yoritib berilgan. «Risola-yi judiya» — quloq, oshqozon, tish kasalliklari ta'rifi keltirilgan. Bundan tashqari, unda gigiena muammolari keltirilgan. Mamlakatimizda yuqumli bo'lmagan kasalliklar hamda ularning xavf omillarining oldini olish, davolash va nazorat qilish, aholining barvaqt o'lim hamda kasallanishini kamaytirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- LA.Majidov V. M., Yuqumli kasalliklar, T., 1996; Shovahobov Sh. Sh., Yuqumli kasalliklar va epidemiologiya asoslari, T., 1997.m
- O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil. Shonosir Shovahobov.
- O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
- <https://uz.wikipedia.org/wiki/Epidemiologiya>
- https://uz.wikipedia.org/wiki/Infekcion_kasalliklar
- <https://yuz.uz/uz/news/ibn-sino-asarlari--infeksiya-bilan-kurashayotgan-olimlar-uchun-qollanma>
- <https://e-library.namdu.uz/>
- <https://lex.uz/docs/-4111365#-4115711>